

BOG'LANISHLI NUTQNI O'STIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Olimjon Eshimbetov

Toshkent gumanitar fanlari universiteti o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doctori PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8113239>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini o'stirishning ilmiy-nazariy asoslari borasida atroflicha fikr-mulohazalar yuritiladi. turli xil didaktik o'yinlar va ularni ta'lim jarayonida maqsadli qo'ashning interaktiv jihatlari tadqiq qilindi. ayniqsa, matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini rivojlantirish usullari mexanizimiga alohida e'tibor berildi.

Kalit so'zlar: nutq, ko'nikma, tahlil, metod, tasavvur, interaktiv, pedagogik texnologiya, tallafuz, talqin, so'zlash malakasi, bayon qilish madaniyati, nutqiy xoslangan hodisa, og'zaki hamda yozma bayon jipsligi, til madaniyati va nutq madaniyati.

LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS OF LINKAGE SPEECH CULTURE

Abstract. The article provides comprehensive feedback on the scientific and theoretical basis of growing students' connected speech skills in primary-grade students by means of text. a variety of didactic games and interactive aspects of the target hand were researched in the process of training them. particular attention was paid to the mechanism of methods for the development of students' associated speech skills in the text tool.

Key words: speech, skills, analysis, method, imagination, interactive, pedagogical technology, tallafuz, interpretation, speaking skills, culture of Statement, Speech-specific phenomenon, oral and written statement fluency, language culture and speech culture.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СВЯЗНОЙ РЕЧИ

Аннотация. В статье подробно рассмотрены научно-теоретические основы развития связной речевой компетенции учащихся с помощью текста у учащихся начальных классов. были исследованы интерактивные аспекты различных дидактических игр и их целенаправленного использования в образовательном процессе. особое внимание было уделено механизму способов развития связной речевой компетенции учащихся средствами текста.

Ключевые слова: речь, умение, анализ, метод, воображение, интерактивность, педагогическая технология, произношение, интерпретация, речевая компетентность, повествовательная культура, речевое явление, устное и письменное повествование, языковая культура и культура речи.

Ravon, ifodali hamda ta'sirchan nutq hamisha hayotiy ehtiyoj hosilasi bo'lib kelgan. Binobarin, kishilik jamiyati tomonidan to'plangan bilim, tajriba va aqliy salohiyatni o'zlashtirishda vosita vazifasini bajaradigan so'zlash manerasida ijodiy mustaqillik nazariy axborot bilan uyg'unlashadi. Aslida belgilangan o'quv materialining ong-tuyg'uda to'liq o'zlashtirilishi jarayoni muayyan tizim intizomini taqozolaydi. SHu ma'noda, matnni kitobxon tasavvuriga yetkazib berish qanchalik ahamiyat kasb etsa, uni hissiy idrok etish va ifodalash ham shunchalik zarurat tug'diradi. Ta'lim mazmuni mudom shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'sir o'tkazishga intilishini hisobga olsak, ma'naviyat va ma'rifat yaxlitligi ehtiyoji qabarib ko'rinadi. Vaholanki,

«ma'naviyatning yana bir muhim xususiyati odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qilishida namoyon bo'ladi»[1].

Insoniyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, milliy uyg'onish, o'zlikni anglash hamda jamiyatga munosabatning faollashuvi aynan ma'rifatdan ibtidolanishi ayon bo'ladi. To'g'rirog'i, sog'lom e'tiqod va yuksak ma'naviyat estetik idrokda tutashadi. Zotan, intellektual bilim, aqliy salohiyatga intilish har bir mamlakat kundalik hayot mazmuni, taraqqiyot yo'sini kafolati sanaladi. Joriy kunda ijtimoiy ongda jiddiy yangilanish hosil bo'layotganligini hisobga olsak, ma'naviy-estetik qadriyaviy mezonlarni shakllantirish zarurati salmog'i yanada ortadi. Aynan murakkab hamda tahlikali davr ruhiyatida voyaga yetayotgan avlod ma'rifati o'zgacha mas'uliyatni taqozo etishi isbot talab qilinmaydigan haqiqat.

Avlod ma'naviyati va ma'rifati shakllanishida falsafiy tafakkur muhim o'rin egallaydi. Voqelikning umumiy, juz'iy hamda muntazam takrorlanib turadigan munosabatlari aslida intellektual salohiyatdan ibtidolanadi. Binobarin, borliqni aks ettirish, insoniyat olamini idrok etish yo'sinidagi intilishlar o'ziga xos ifodasi **so'zlash malakasida** voqe bo'ladi. To'g'rirog'i, qadriyaviy mezonlar barqarorlashuvi ratsional bilishning oliy bosqichi – **nutqiy xoslangan hodisada** maromiga yetadi. SHu ma'noda, mudomi odamzod onggi va tuyg'usini ham yaxlitlashtirish, ham jiddiy yangilashga moyillik o'zlashtiruvchi badiiy-estetik idrokining davr ruhiyatiga tutashuvini ta'minlaydi. Negaki, **bayon qilish madaniyati** doimo yaxlit tasavvur shaklida hosil bo'ladi hamda real salmoqdorlik kasb etadi.

O'quvchi mustaqil fikrlash madaniyati, ijodiy imkoniyatlari namoyon bo'lish tarzi hamda lug'at zahirasi aynan nutq faoliyatini markazlashtiradi. To'g'rirog'i, unda o'zlashtirilgan bilim darajasi, erishilgan malaka hajmi va amaliy ko'nikma o'z ifodasini topadi. Ayon bo'ladiki, yetuk mutaxassis tomonidan amalga oshiriladigan har qanday uslubiy qo'llanma **og'zaki hamda yozma bayon jipsligini** tayin etishga yo'naltiriladi. SHu ma'noda, ta'limni to'g'ri tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad **til madaniyati va nutq madaniyati** uyg'unligiga erishishdan iborat, deya e'tirof etish joiz.

Har bir millat tili qudratini uning amaliy ishlanganlik darajasi ta'minlaydi. Aniqrog'i, adabiy til va sheva o'rtasidagi keskin tafovutni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy bilim va nutqiy faoliyat butunligini tayinlash mutaxassis oldiga muayyan vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Ana shu maqsadning qanday amalga oshishi, avvalo, «o'qituvchining ijodiy izlanishiga, samarali metodlarni topa olishi, undan unumli foydalanishiga tutashadi»[2]. SHunday ekan, og'zaki va yozma nutq bog'lanishlarini mustahkamlash hamda taraqqiy toptirish hamisha dolzarb ahamiyat kasb etadi. Aslida nutqiy aloqa istilohi muayyan nazariy-amaliy ittifoqni oydinlashtiradi, o'zlashtirilgan material ko'lamini tushuncha hamda ifoda mushtarakligiga yo'naltiradi. To'g'rirog'i, axborot va qo'llanma orasidagi munosabat uning mohiyatini dalolatlaydi. Ham ilmiy ma'lumot va ta'lim ko'nikmasi, ham nutq texnikasi va ifoda madaniyati o'zaro bog'liqligi qo'yilgan masala mohiyatini yanada murakkablashtirib yuboradi.

Og'zaki va yozma nutq madaniyati uzluksizligi ta'minoti hamisha metodika e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Uning mohiyatini muntazam nazorat qilish faoliyati bilan izohlash maqsadga muvofiq. Mushohada ifodasidagi izchillik hamda savodxonlik darajasi yaxlitligi uning mag'zini tashkil etadi. Aslida nutqiy faoliyat muhit, ruhiyat va tarbiya o'zaro hamkorligini taqozolaydi. Eng avvalo, mazkur murakkab jarayon adabiy til xarakterini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan to'liq o'zlashtirishdan ibtidolanadi. Nazariy ma'lumot vositasida egallanadigan ijodiy layoqat og'zaki

va yozma nutq uzluksizligini ta'minlaydi. Shu ma'noda, og'zaki va yozma nutq madaniyatini taraqqiy ettirish, amaliy hamda nazariy ko'nikmalarni birlashtirishga ehtiyoj tug'diradi. Unda ijodiy mayl, amaliy ko'nikma hamda ifoda malakasi rivojlanib turadigan yaxlit jarayon tusini oladi. Insonning ma'naviyati, madaniyati va odob-axloqi uning tilida yaqqol namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni yaqqol ko'rsatyaptiki, o'quvchi nutqi ravon emas, so'z boyligi ham kamroq.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Jamiyat taraqqiyotini hayotning takomillashuvini shuningsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunga erishishning birdan-bir yo'li yosh avlodning o'qish va bilim ko'nikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», deyilishida judda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish va intilishlar insonni ma'naviy jihatdan o'stiradi, axloqiy barkamollikka eltadi. SHuning uchun ham bizning davrimizda xalq ta'lim tizimiga, yoshlar ma'naviyatining muhim bir manbai sifatida katta e'tibor berilmoqda.

O'qishda malakasizlik, o'qish madaniyatini bilmaslik har qanday o'rganish jarayonini tinkani quritadigan og'ir mehnat va majburiyatga aylantiradi. O'qish va o'rganish malakasi muayyan darajada shakllangan kishi uchun esa, ushbu faoliyat zavq beradigan ijodiy faoliyatga aylanadi. Qiynayotgan ishning samaradorligini ta'minlaydi.

Maktab adabiy ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rganishning maqbul usullari va shakllaridan foydalanish, shu jarayonda badiiy-estetik tushuncha va zavqni tarbiyalash, ularni kitobxonlikka o'rgatish kabi muammolar, (u) metodist olimlarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelayotgani ham xuddi shu sababdandir.

Bunday kamchiliklardan qutulishning birdan-bir yo'li ona tili darslarida o'quvchining mustaqil fikrini rag'batlantirib borish kerak.

Bola maktabga gapirishni bilgan holda keladi, lekin u o'qishning birinchi kunlaridan boshlab beriladigan yangi tushuncha, fikr, hissiyotni ifodalab berish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Buning uchun uning so'z boyligi etishmaydi. Bola maktabga kelguncha, uning so'z boyligi bolalar bilan o'yin faoliyati uchun, shuningdek, uning talab va qiziqishlari oila doirasida bo'lib, ota-onalari va qarindoshlari bilan suhbatlashish uchun yetarli edi. Maktabda esa ko'pincha to'liq va keng javob berishga, o'qituvchi va sinf oldida so'zlashga to'g'ri keladi. Undan tashqari, maktabgacha bola o'z fikrini yozma holda ifodalagan emas. Bular yuzasidan malaka hosil qilishi uchun bola maxsus o'qishi, fikr yuritishga o'rgatilishi zarur.

Ona tilini mukammal o'qitish o'quvchilar nutq madaniyatini o'stirishga keng imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi rahbarligida tabiat hodisalarini, kishilarning mehnat faoliyatini kuzatadilar, o'rtoqlari bilan fikr almashadilar, o'qituvchi va boshqalarning adabiy til normalari asosidagi nutqlarini eshitadilar, kitob o'qiydilar, o'zlari matn tuzadilar.

Bola maktabga kelgan dastlabki kunlardan o'g'zaki va yozma nutq qoidalarini, grammatikani o'rganadilar. Bu grammatik qoidalar o'quvchining nutq ko'nikma va malakasini o'stirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ishi bilan bog'lab olib borilsa, adabiy nutqning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bog'lanishli nutq aqliy, ruhiy va ma'naviy faoliyat hosilasi, unda ijodiy axborot uzluksiz hamkorligi, qayta idrok etish tizimi va mustaqil fikrlash malakasi yaxlit hodisaga aylanadi. Tasavvurdan tasvirga, tasvirdan ifodaga o'tib turadigan konstruksiya tabiati jarayon tezkorligini taqozolaydi. Eng avvalo, nutq hamda adabiy til mohiyati orasida mavjud tafovutni aniqlashtirish joiz. Lug'aviy birlik to'la o'zlashtirish jarayonida nutqqa evriladi. To'g'rirog'i, nutqiy malaka

muallif talqinidan kitobxon tasavvuriga ko'chishi vositasida salmoq kasb etadi. Jahon madaniyatida «qayta mutolaa» istilohi mavjud. Jiddiy ijodiy mehnat sifatida o'zlashtirish estetikasi «olam va odam haqidagi tasavvurlar, muayyan dunyoqarash bilan o'zaro muloqotga kirishish bosqichi» [3] ekan, nutqiy faoliyat ko'p qirrali jarayon sajiyasini oladi. Unda ijtimoiy mohiyat va ruhiy madaniyat, tasavvur tiniqligi va taassurot yaxlitligi, ifoda mustaqilligi va tasvir muqobilligi aks etadi.

Binobarin, nutqiy malakani o'zlashtirish tizimida kitobxon analogik talqinga suyanadi. Aniqroq aytganda, subyekt real voqelik va ijodiy yondashuv orasidagi tafovutlarni bir-biriga muqoyasa qiladi. Rus uslubiyatchisi V.O.Punskiy nutqiy faoliyat mazmunini ilg'or o'zlashtirish yordamida xotirada qayta tiklash jarayoni mexanik tarzda esda saqlashga nisbatan 25 barobar samarador bo'lishini e'tirof etadi [4]. Darhaqiqat, nutq psixologiyasini to'g'ri tayin etish va o'zlashtirish bir-biriga bog'liq omillar. Bu omillar, o'z navbatida, maxsus nazariy bilim malakasi va uzluksiz ijodiy layoqat o'zaro hamkorligidan o'sib chiqadi.

O'zbek tili so'z, so'z birikmalari va gap darajasidagi biri-biridan uslubiy jihatdan farqlanadigan sinonimlarga nihoyatda boy tildir. SHu bois o'quvchilarda ularning har birini matnning uslubiy turigagina emas, balki nutqiy janriga nisbatan ham to'g'ri qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish kerak.

Fikrni matn tarzida ifodalashda yuqorida tilda olingan barcha talabalarga rioya qilishga odatlantirish va bu borada zaruriy ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida o'quvchilarni muntazam ravishda mashq qildirish kerak.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida darslarda matnlardagi tarixiy va eskirib qolgan so'zlarni topib, ularni hozirgi kunda qo'llanadigan sinonimlari bilan almashtirish topshirig'ini berish ham mumkin.

REFERENCES

1. Karimov I.A. yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 25
2. Golubkov V.V. Masterstvo ustnoy rechi. –M.: Prosveshenie, 1965. –S. 9.
3. Tvardovskiy A.T. Sobr. soch. v 5-i t. – M.: Nauka, 1971. – S. 342.
4. Punskiy V.O. Azbuka uchebnogo truda. – M.: Prosveshenie, 1988. – S.301.